ZAMONAVIY HUQUQSHUNOSLIKNING AKTUAL MUAMMOLARI

XXIII-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI

Issue - 9(2026) Available at www.uznauka.uz

PULNING FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARDAGI O‘RNI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI: GERMANIYA TAJRIBASI

Opayev Asan Aymanovich

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

Elektron pochta: opaevasan@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tezisda pulning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi o‘rni, huquqiy tabiati, funksional xususiyatlari va o‘ziga xos jihatlari Germaniya tajribasi asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Germaniya Fuqarolik kodeksining (Bürgerliches Gesetzbuch, BGB) xorijiy valyutadagi pul majburiyatlari, to‘lov joyi, majburiyatni kechiktirish, kechiktirish foizlari, to‘lov xizmatlari va asossiz boyishga oid normalari tahlil qilinadi. Tahlil natijasida pulning huquqiy ahamiyati uning iqtisodiy vazifalari bilangina cheklanmasligi, balki mablag‘ning huquqiy shakli, to‘lov mexanizmi, hisob-kitobning yakunlangan vaqti hamda taraflar o‘rtasida tavakkalchilikning taqsimlanishiga bog‘liqligi asoslantiriladi. O‘zbekiston qonunchiligida pul fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyekti ekanligi, uning huquqiy maqomi, avvalo, fuqarolik huquqi obyektlari tizimida tutgan o‘rni, mulkiy munosabatlarda ishtirok etish shakllari hamda majburiyatlarni bajarish vositasi sifatidagi xususiyatlari orqali namoyon bo‘lishi asoslantirilib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Pul, fuqarolik-huquqiy munosabatlar, pul majburiyati, qonuniy to‘lov vositasi, hisob-kitob, naqdsiz pul mablag‘lari, Germaniya Fuqarolik kodeksi, mol-mulk, mulkiy huquqlar.*

ZAMONAVIY HUQUQSHUNOSLIKNING AKTUAL MUAMMOLARI

XXIII-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI

Issue - 9(2026) Available at www.uznauka.uz

РОЛЬ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕНЕГ В ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ: ОПЫТ ГЕРМАНИИ

Опаев Асан Айманович

Независимый соискатель Ташкентского государственного юридического университета

Электронная почта: opaevasan@gmail.com

Аннотация. В тезисе на основе опыта Германии проводится сравнительный анализ роли денег в гражданско-правовых отношениях, их правовой природы, функциональных особенностей и специфических черт. Анализируются нормы Германского гражданского уложения (Bürgerliches Gesetzbuch, BGB) о денежных обязательствах в иностранной валюте, месте платежа, просрочке исполнения обязательства, процентах за просрочку, платежных услугах и неосновательном обогащении. По результатам анализа обосновывается, что правовое значение денег не ограничивается их экономическими функциями, а зависит от правовой формы средств, механизма платежа, момента завершения расчета, а также распределения рисков между сторонами. Обосновывается, что в законодательстве Узбекистана деньги являются объектом гражданско-правовых отношений, а их правовой статус проявляется прежде всего через место в системе объектов гражданских прав, формы участия в имущественных отношениях и свойства



средства исполнения обязательств; на этой основе разработаны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: деньги, гражданско-правовые отношения, денежное обязательство, законное платежное средство, расчеты, безналичные денежные средства, Германское гражданское уложение, имущество, имущественные права.

THE ROLE AND FUNCTIONAL FEATURES OF MONEY IN CIVIL LAW RELATIONS: THE GERMAN EXPERIENCE

Opayev Asan Aymanovich

Independent researcher, Tashkent State University of Law

E-mail: opaevasan@gmail.com

Abstract. Drawing on the German experience, the thesis offers a comparative analysis of the role of money in civil law relations, its legal nature, functional features and specific characteristics. It examines the provisions of the German Civil Code (Bürgerliches Gesetzbuch, BGB) on monetary obligations in foreign currency, the place of payment, default of the debtor, default interest, payment services and unjust enrichment. The analysis shows that the legal significance of money is not limited to its economic functions but depends on the legal form of the funds, the payment mechanism, the moment at which settlement

is completed and the allocation of risk between the parties. It is argued that under the legislation of Uzbekistan money is an object of civil law relations whose legal status is manifested primarily through its place in the system of objects of civil rights, the forms of its participation in property relations and its features as a means of performing obligations; proposals and recommendations are developed on this basis.

Keywords: money, civil law relations, monetary obligation, legal tender, settlements, non-cash funds, German Civil Code, property, property rights.

KIRISH. Pul fuqarolik muomalasining eng muhim va universal vositalaridan biri bo‘lib, tovarlar, ishlar, xizmatlar va boshqa mulkiy manfaatlarning qiymatini ifodalash, ularning almashinuvini ta‘minlash hamda majburiyatlarni bajarishda qo‘llaniladi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda pulning ahamiyati faqat iqtisodiy munosabat bilan cheklanmaydi. Pul shartnoma predmetining qiymatini belgilash, qarzdorning majburiyatini aniqlash, kreditor talabining hajmini ifodalash, zarar va foizlarni hisoblash, shuningdek, asossiz olingan mablag‘larni qaytarish kabi yuridik oqibatlarni ham yuzaga keltiradi. Shu sababli pulni iqtisodiy kategoriya sifatida tavsiflash bilan bir qatorda, uning fuqarolik huquqidagi mustaqil funksional va huquqiy xususiyatlarini ochib berish zarurati ham mavjud. Bu masalaning dolzarbligi naqd pul bilan bir qatorda bank hisobvaraqlaridagi yozuvlar, elektron to‘lovlar va boshqa naqdsiz hisob-kitob shakllarining kengayib borayotgani bilan ham belgilanadi. Germaniya tajribasini o‘rganish mazkur masalalarni tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Germaniya Fuqarolik kodeksi pulning barcha iqtisodiy funksiyalarini emas, aksincha, pul

majburiyatlarining turli ko‘rinishlari va ularning huquqiy oqibatlarini majburiyat huquqi, shartnoma huquqi, to‘lov xizmatlari hamda asossiz boyish institutlari orqali tartibga soladi [1–3]. Bu yondashuv pulning huquqiy mazmunini uning muomaladagi amaliy vazifalari bilan bog‘liq holda aniqlashga yordam beradi.

ASOSIY QISM (MUHOKAMA VA NATIJA). Pulning muomala vositasi sifatida funksiyasi tovarlar, ishlar va xizmatlar almashinuvida ko‘rinadi. Bunda pul bevosita ayirboshlashdagi ehtiyojlar mos kelishi zaruratini bartaraf etadi. Fuqarolik-huquqiy jihatdan ushbu funksiya shartnomaviy munosabatlarning keng doirasida oldi-sotdi, pudrat, xizmat ko‘rsatish, ijara va boshqa bitimlarda pul to‘lovining umumiy ekvivalent sifatida qo‘llanishida namoyon bo‘ladi. To‘lov vositasi funksiyasi pulning mavjud yoki ilgari vujudga kelgan majburiyatni bajarish va tugatishdagi ahamiyatini ifodalaydi. Bu funksiya muomala vositasi funksiyasiga yaqin bo‘lsa ham, ular aynan bir tushuncha emas. Muomala vositasi almashinuv jarayoniga xizmat qilsa, to‘lov vositasi muayyan pul majburiyatini bajarishning yuridik natijasiga, ya‘ni qarzdorning tegishli ijrosi qabul qilingach, majburiyatning to‘liq yoki tegishli qismda tugashiga imkon beradi. Jamg‘arish vositasi funksiyasi esa pul qiymatini kelgusida foydalanish uchun saqlash imkoniyatini anglatadi. Huquqiy munosabatlarda bu funksiya omonat, qarz, bank hisobvarag‘i va foiz to‘lash bilan bog‘liq munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

Shu o‘rinda iqtisodiy funksiyalarni yuridik funksiyalar bilan farqlash lozim. Iqtisodiy funksiya pulning iqtisodiy tizimdagi vazifasini tushuntiradi. Yuridik funksiya esa qonun pul ishtirokidagi munosabatlarga qanday huquq va majburiyatlar, talablar va javobgarlik oqibatlarini bog‘lashini ko‘rsatadi. Mazkur

farqlash pulning fuqarolik huquqidagi maqomini aniq belgilash uchun metodologik ahamiyatga ega.

Pulning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi yuridik vazifalari quyidagilardan iborat. Birinchidan, pul majburiyat predmetini tashkil etadi. Pul majburiyatida qarzdor kreditor foydasiga muayyan miqdordagi pulni to‘lashi shart bo‘ladi. Bunday majburiyat shartnomadan, zarar yetkazishdan, asossiz boyishdan yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslardan kelib chiqishi mumkin. Pul majburiyatining predmeti individual belgilangan banknot yoki tanga emas, balki, odatda, tegishli pul birligida ifodalangan muayyan qiymatdir. Shu sababli pul majburiyatlari, qoida tariqasida, turga xos va miqdor bilan belgilanadigan majburiyatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, pul majburiyatni bajarish va qarzni tugatish vositasidir. Germaniya Fuqarolik kodeksining (BGB) 270-moddasi, agar boshqacha holat kelishilmagan yoki majburiyat mohiyatidan kelib chiqmagan bo‘lsa, pulni kreditorning yashash joyiga uning foydasiga yuborish bilan bog‘liq xarajat va tavakkalchilikni qarzdor zimmasiga yuklaydi [4]. Ushbu qoida pul to‘lovini amalga oshirishda to‘lovni yuborish va majburiyatni bajarish joyi masalalarini farqlash zarurligini ko‘rsatadi. Uchinchidan, pul talab miqdorini hisoblash va majburiyatning ekvivalentini aniqlash vositasidir. Germaniya Fuqarolik kodeksining (BGB) 244-moddasiga ko‘ra, Germaniya hududida to‘lanishi lozim bo‘lgan, yevrodan boshqa valyutada ifodalangan pul qarzi, agar aynan boshqa valyutada to‘lash aniq kelishilmagan bo‘lsa, yevroda to‘lanishi mumkin. Konvertatsiya to‘lov joyidagi to‘lov vaqtida amal qilgan kurs bo‘yicha amalga oshiriladi [1]. Mazkur qoida valyuta xavfi, to‘lov valyutasi va shartnoma erkinligi o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashga qaratilgan. Demak, pulning qiymat

o‘lchovi funksiyasi huquqiy jihatdan valyuta sharti va konvertatsiya qoidalari orqali konkretlashadi.

To‘rtinchidan, pul asossiz olingan yoki o‘tkazilgan mulkiy qiymatni qaytarish vositasi hisoblanadi. Germaniya Fuqarolik kodeksining (BGB) 812-moddasi boshqa shaxs hisobidan huquqiy asossiz mol-mulk yoki manfaat olgan shaxs zimmasiga uni qaytarish majburiyatini yuklaydi [5]. Masalan, bank o‘tkazmasida hisob raqami xato ko‘rsatilishi natijasida mablag‘ni huquqiy asossiz olgan shaxsga nisbatan qaytarish talabi yuzaga kelishi mumkin. Bunda pulning qaytarilishi nafaqat iqtisodiy muvozanatni tiklaydi, balki fuqarolik muomalasida asossiz boyishning oldini oluvchi yuridik kafolat vazifasini ham bajaradi.

Germaniya tajribasida pulning huquqiy rejimi naqd pul va bank hisobvarag‘idagi mablag‘lar o‘rtasidagi farqni e‘tiborga olgan holda shakllangan. Yevro banknotlari Yevropa Ittifoqi huquqi doirasida qonuniy to‘lov vositasi maqomiga ega. Biroq bu maqom har qanday xususiy shartnomada faqat naqd pul bilan hisob-kitob qilish majburiyatini mutlaq tarzda anglatmaydi [6]. Deutsche Bundesbank izohiga ko‘ra, Germaniya fuqarolik huquqida shartnoma erkinligi amal qiladi [7]. Demak, qonuniy to‘lov vositasi maqomi va xususiy-huquqiy shartnoma erkinligi o‘zaro muvofiqlashtiriladi.

Stephan Meder Germaniyada giro-to‘lov tizimining tarixiy rivojlanishini tahlil qilib, naqdsiz to‘lovda oluvchining bankka nisbatan talab huquqi yakuniy tus olgan payt to‘lovning huquqiy yakunlanganligini aniqlash uchun muhimligini ko‘rsatadi [8]. Bu yondashuvga ko‘ra, naqdsiz pulning muomaladagi funksiyasi bank hisobvaraqlari o‘rtasidagi yozuvlar bilangina emas, balki talab huquqining

amalda foydalanish mumkin bo‘lgan shaklda yuzaga kelishi bilan belgilanadi. Germaniya Federal bankining 2023-yilgi to‘lov xulq-atvori bo‘yicha tadqiqotida so‘rov qatnashchilarining 97 foizi o‘z nomiga kamida bitta joriy bank hisobvarag‘iga ega ekanini bildirgan. Hisobvaraqlar bank o‘tkazmalari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri debet va karta to‘lovlari, shuningdek naqd pul kiritish va yechib olish uchun infratuzilma vazifasini bajaradi [9]. Ushbu ko‘rsatkich naqdsiz to‘lovlarning kundalik fuqarolik muomalasidagi institutsional ahamiyatini ko‘rsatadi, biroq u Germaniya jamiyatida naqd pulning huquqiy yoki iqtisodiy ahamiyati yo‘qolganini anglatmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 94-moddasiga muvofiq, mamlakatning pul birligi so‘m bo‘lib, so‘m o‘z nominal qiymati bo‘yicha qabul qilinishi shart bo‘lgan qonuniy to‘lov vositasidir [10]. Kodeksning 790-moddasi fuqarolar o‘rtasidagi va fuqarolar ishtirokidagi, tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan hisob-kitoblarni naqd yoki naqdsiz shaklda amalga oshirishga imkon beradi. Yuridik shaxslar o‘rtasidagi hamda fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq hisob-kitoblari esa naqdsiz tartibda amalga oshiriladi [11]. Ushbu normalar pulning qonuniy to‘lov vositasi maqomini va hisob-kitob shakllarining umumiy chegaralarini belgilaydi.

O‘zbekiston qonunchiligida pul fuqarolik-huquqiy munosabatlarning muhim obyektlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Uning huquqiy maqomi, avvalo, fuqarolik huquqi obyektlari tizimida tutgan o‘rni, mulkiy munosabatlarda ishtirok etish shakllari hamda majburiyatlarni bajarish vositasi sifatidagi xususiyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Pulning fuqarolik-huquqiy munosabatlar obyekti sifatidagi

ahamiyati shundaki, u nafaqat mustaqil mulkiy qiymatga ega bo‘lgan boylik, balki fuqarolik muomalasida turli huquq va majburiyatlarning vujudga kelishi, o‘zgarishi va bekor bo‘lishini ta‘minlovchi universal vosita ham hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining fuqarolik huquqlari obyektlariga bag‘ishlangan normalari pulni mulkiy munosabatlarda ishtirok etuvchi obyekt sifatida ko‘rib chiqish uchun huquqiy asos yaratadi. Xususan, pulning milliy valyuta so‘m shaklida ifodalanishi, uning qonuniy to‘lov vositasi sifatida belgilanishi hamda naqd va naqdsiz shakllarda muomalada bo‘lishi uning huquqiy rejimining asosiy xususiyatlarini tashkil etadi. Mazkur masalaning huquqiy asosini O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 81-moddasi tashkil etadi [10]. Ushbu moddaga muvofiq, fuqarolik huquqlarining obyektlariga ashyolar, shu jumladan pul va qimmatli qog‘ozlar, boshqa buyumlar, mol-mulk, shu jumladan mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar hamda boshqa moddiy va nomoddiy boyliklar kiradi. E‘tiborli jihati shundaki, qonun chiqaruvchi pulni fuqarolik huquqlari obyektlari tarkibida bevosita qayd etish orqali uning mustaqil fuqarolik-huquqiy qiymatga ega ekanligini e‘tirof etgan. Pulning fuqarolik-huquqiy muomaladagi maqomini belgilashda Fuqarolik kodeksining 82-moddasida nazarda tutilgan fuqarolik huquqlari obyektlarining muomalada bo‘lishi to‘g‘risidagi qoida ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur normaga ko‘ra, fuqarolik huquqlari obyektlari, agar qonunchilik bilan ularning muomalada bo‘lishi cheklanmagan yoki muomaladan chiqarilmagan bo‘lsa, bir shaxsdan boshqa shaxsga erkin o‘tishi mumkin. Ushbu qoida pulning oldi-sotdi, qarz, hadya, bank hisobvarag‘i, hisob-kitob va boshqa fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishining umumiy huquqiy asosini tashkil qiladi.

Bundan tashqari, Fuqarolik kodeksining 94-moddasida pulning huquqiy rejimi alohida mustahkamlangan. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining pul birligi so‘m hisoblanadi hamda u yozib qo‘yilgan qiymati bo‘yicha qabul qilinishi shart bo‘lgan qonuniy to‘lov vositasi sifatida e‘tirof etiladi. Shu bilan birga, qonunchilik naqd va naqdsiz hisob-kitob shakllarini ham nazarda tutadi. Mazkur norma pulning nafaqat fuqarolik huquqlari obyekti, balki xususiy-huquqiy majburiyatlarni bajarishning qonuniy vositasi ekanligini ham tasdiqlaydi. Biroq pulning naqd va naqdsiz shakllarini fuqarolik-huquqiy tabiatiga ko‘ra aynan bir xil deb baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Naqd pul muomalasida banknot va tangalar moddiy ashyo sifatida namoyon bo‘lsa, bank hisobvarag‘idagi mablag‘lar, odatda, mijozning bankka nisbatan tegishli talab huquqi bilan bog‘liq bo‘ladi. Binobarin, naqdsiz pul mablag‘lari muomalasida asosiy e‘tibor moddiy obyektning jismoniy topshirilishiga emas, balki hisobvaraqlar bo‘yicha tegishli yozuvlarning amalga oshirilishi va pul talabining boshqa shaxs foydasiga o‘tishiga qaratiladi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston fuqarolik qonunchiligida pulning fuqarolik huquqlari obyekti sifatidagi umumiy maqomi belgilangan bo‘lsa-da, uning naqd va naqdsiz shakllarining huquqiy tabiatini yanada aniq farqlash nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Xususan, bank hisobvarag‘idagi mablag‘larga nisbatan mijozning huquqiy maqomi, pul o‘tkazmasi amalga oshirilgan paytda majburiyatning bajarilgan deb hisoblanishi hamda noto‘g‘ri o‘tkazilgan mablag‘larni qaytarish masalalari alohida huquqiy tartibga solishni talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Tadqiqot natijalari pul fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bir vaqtning o‘zida iqtisodiy ekvivalent, majburiyat predmeti, to‘lov va hisob-kitob vositasi hamda mulkiy qiymatni tiklash mezoni sifatida

namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Biroq iqtisodiy va yuridik funksiyalarni farqlash zarur. Birinchisi pulning xo‘jalik muomalasidagi vazifalarini, ikkinchisi esa qonun ushbu vazifalarga bog‘laydigan huquq va majburiyatlar hamda yuridik oqibatlarni ifodalaydi.

Germaniya tajribasidan kelib chiqib, pulning fuqarolik-huquqiy muomala obyekti sifatidagi maqomini baholashda yana bir muhim jihatga e‘tibor qaratish lozim. Ya‘ni, bank hisobvarag‘idagi mablag‘lar mijozning bankka nisbatan talab huquqini ifodalashi sababli, bunday mablag‘lar bilan bog‘liq munosabatlarda mulk huquqini himoya qilish mexanizmlari bilan shartnomaviy talab huquqini himoya qilish mexanizmlarini bir-biridan farqlash zarur.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy taklifni ilgari surish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining pul va hisob-kitoblarga oid normalarini takomillashtirish jarayonida naqdsiz pul mablag‘larining huquqiy tabiati alohida ochib berilishi, bank hisobvarag‘idagi mablag‘larga nisbatan mijozning talab huquqi va to‘lov xizmatini ko‘rsatuvchi tashkilotning majburiyatlari o‘rtasidagi nisbat qonunchilikda aniq belgilanishi lozim. Shuningdek, pul o‘tkazmasi bo‘yicha to‘lov topshirig‘i qabul qilingan vaqt, mablag‘ oluvchining to‘lov xizmatini ko‘rsatuvchi tashkiloti hisobvarag‘iga kelib tushgan vaqt va mablag‘ oluvchi foydalanishi uchun mavjud bo‘lgan vaqtning huquqiy oqibatlarini farqlovchi normalarni ishlab chiqish taklif etiladi. Bunday tartibga solish pul majburiyatlarini bajarishda huquqiy aniqlikni ta‘minlash, bank operatsiyalari bilan bog‘liq nizolarni kamaytirish va fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining mulkiy manfaatlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi. Germaniya tajribasi pulning fuqarolik-huquqiy maqomini faqat uning qiymati yoki

to‘lov vositasi sifatidagi xususiyati bilan cheklab bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Pulning huquqiy tabiati, avvalo, uning muomalada qanday shaklda ishtirok etishi, unga nisbatan qanday subyektiv huquqlar mavjudligi va ushbu huquqlarni amalga oshirish qanday majburiyatlar tizimi orqali ta‘minlanishi bilan belgilanadi. Shu sababli pulni fuqarolik huquqi obyekti sifatida takomillashtirilgan tarzda talqin qilishda naqd pulga nisbatan mulk huquqi, naqdsiz pul mablag‘lariga nisbatan esa talab huquqi va to‘lov xizmatlari bilan bog‘liq shartnomaviy mexanizmlarni kompleks o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bürgerliches Gesetzbuch (BGB). §§ 244–247, 433, 488. Bundesministerium der Justiz. URL: https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/

2. Bürgerliches Gesetzbuch (BGB). §§ 286, 288. Verzug des Schuldners; Verzugszinsen und sonstiger Verzugsschaden. URL: https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/

3. Bürgerliches Gesetzbuch (BGB). §§ 675c, 675f. Zahlungsdienste und E-Geld; Zahlungsdienstevertrag. URL: https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/

4. Bürgerliches Gesetzbuch (BGB). § 270. Zahlungsort. URL: https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/__270.html

5. Bürgerliches Gesetzbuch (BGB). § 812. Herausgabeanspruch. URL: https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/__812.html

6. Beck, B. Gesetzliche Zahlungsmittel und Annahmezwang: Eine privatrechtliche Untersuchung unter Berücksichtigung des deutschen und europäischen Rechts. Baden-Baden: Nomos, 2022. 109 S.

7. Deutsche Bundesbank. Deutliche Mehrheit befürwortet Annahmepflicht für bargeldlose Zahlungsmittel. Frankfurt am Main, 2025. URL: https://www.bundesbank.de/de/aufgaben/themen/deutliche-mehrheit-befuerwortet-annahmepflicht-fuer-bargeldlose-zahlungsmittel-966536

8. Meder, S. Giro Payments and the Beginnings of the Modern Cashless Payment System. In: Fox, D., Ernst, W. (eds.). Money in the Western Legal Tradition: Middle Ages to Bretton Woods. Oxford: Oxford University Press, 2016. P. 441–460. DOI: 10.1093/acprof:oso/9780198704744.003.0021

9. Deutsche Bundesbank. Payment behaviour in Germany in 2023. Frankfurt am Main: Deutsche Bundesbank, 2024. P. 19.

10. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Birinchi qism. 81, 82, 94-moddalar. URL: https://lex.uz/acts/111181

11. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Ikkinchi qism. 45-bob, 790-modda. URL: https://lex.uz/docs/-180552